



SOLIQDAN QOCHISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH VA ULARGA OID IQTISODIY-HUQUQIY CHORALAR TAHLILI

Axmedov Feruz Baxodirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, PhD

Annotasiya. Mazkur maqolada respublikamizda so'ngi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot- kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

АНАЛИЗ ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ПРАВОВЫХ МЕР ПО СНИЖЕНИЮ СКРЫТОЙ ЭКОНОМИИ ПРИ УКЛОНЕНИИ ОТ УПЛАТЫ НАЛОГОВ

Ахмедов Феруз Баходирович

Ташкентский государственный экономический университет, к.э.н.

Аннотация. В данной статье описаны широкомасштабные реформы, направленные на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговой и финансовой сферах, улучшение инвестиционного климата и дальнейшее укрепление доверия деловых кругов к нашей республике за последние годы. При этом были изучены такие направления, как подпольная торговля и общепит, перевозки автотранспортом, жилищное строительство и ремонт, оказание бытовых услуг, сформированы научно-практические выводы и предложения по зарубежному опыту и его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

ANALYSIS OF ECONOMIC AND LEGAL MEASURES TO REDUCE HIDDEN SAVINGS IN TAX EVASION

Akhmedov Feruz Bakhodirovich

Tashkent State University of Economics, PhD

Annotation. This article describes large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for doing business in the tax and financial sectors, improving the investment climate and further strengthening the confidence of business circles in our republic in recent years. At the same time, such areas as underground trade and public catering, road transport, housing construction and repair, the provision of personal services were studied, scientific and practical conclusions and proposals were formed on foreign experience and its application in our country.

Key words: tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish.

O'zbekistonda keyingi-yillarda yashirin iqtisodiyotning hissasini kamaytirish, u orqali yuzaga keluvchi soliqdan qochish holatlari hamda soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish borasida me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash, sohani raqamlashtirish natijalari hisobiga yashirin iqtisodiyotni jilovlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, yashirin ish o'rinlarini legallashtirish, nazorat tadbirlarini o'tkazish yo'nalishida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Shumpeter (2007) ikki turga bo'linishni taklif qiladi: ishlab chiqarishda mumkin bo'lgan texnik nosozlik bilan bog'liq xavf va tijorat muvaffaqiyatining etishmasligi bilan bog'liq xavf.

Pokrovskiy (2011) ko'rib chiqish uchun xavfning tarkibiy xususiyatlarini taklif qiladi: xavf, xavfga moyillik, xavfga sezgirlik (zaiflik), boshqa xavf-xatarlar bilan o'zaro ta'sir qilish, xavf haqida mavjud ma'lumotlar, xavf miqdori, xavf bilan bog'liq xarajatlar (xarajatlar), o'ziga xoslik xavflar.

Shvesiyalik iqtisodchi olim Becker (2004) tomonidan xufiyona iqtisodiyotning o'ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo'lmaydigan qismi ekanligi ta'kidlanib, qaysiki ular rag'batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko'rsatishlarini ma'lum qilgan.

Aronov, Kashinlar (2004) o'zining tadqiqotida esa, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o'rgangan holda soliq to'lashdan bosh tortgan soliq to'lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatlari, kelgusida har bir soliq to'lovchi o'z xohishi bilan soliq to'lash majburiyati bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqarishga hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish sohasida qo'llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarni amalga oshirishgan.

Lekin, Jalonkinani (2012) fikrlaridan butunlay boshqacha taklif bilan Toshmatov "Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli to'g'risida"gi kitobida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rag'batlantirish hamda ularning debitor va kreditor qarzlarini qisqartirish va ularni faolligini oshirish orqali undirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan.

Andreeva (2017) tomonidan soliq to'lovchilar tomonidan soliq intizomiga rioya qilinmaslik sabablari tadqiq qilingan, soliqqa oid bilimlarni oshirishga oid usullari tahlil qilinib, soliq to'lovchilarga davlat hamkori sifatida xizmatni takomillashtirish usullari taklif qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliqdan qochish holatlarini tahlil qilishda dunyo amaliyotida yana bir muhim uslubiyot qo'llanildiki, bu milliy iqtisodiyot darajasida yashirin iqtisodiyotning holati, uning yuzaga kelish sabablari hamda soliqdan qochish holatlari bo'yicha qo'llanilayotgan iqtisodiy-huquqiy choralarning qanday samara berayotganligi ham birgalikda tahlil qilinadi. Darhaqiqat, soliqdan qochish holatlarining yuzaga kelishida eng ko'p ta'sir omili bu yashirin iqtisodiyotning darajasi bo'lib, unga oid davlat siyosati o'z navbatida soliqdan bo'yin tovlashga oid mexanizmlar bilan o'zaro bog'lanib ketadi. Bundan tashqari aniqlangan holatlarni huquqiy jihatdan baholab, ularga mos adolatli javobgarlik choralarni belgilash ham muhim sanaladi. Biz tadqiqotimizning ushbu bobining boshida soliqdan qochishning usullarini ham nazariy ham amaliy jihatdan tavsiflagan edik. Ushbu usullar o'z navbatida soliqdan qochish choralariga qo'llanilgan javobgarlik usullarini ham ko'rib chiqishni taqozo etadi, albatta, ushbu paragrafimizda buning tahliliga ham to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, soliq tizimida soliqdan qochish holatlariga yo'l qo'ymaslik va yashirin iqtisodiyotning oldini olish maqsadida elektron hisobvaraqa-fakturalari bilan qamrov darajasi 100 foizga, hisobotlarni avtomatlashtirish 76 foizdan 86 foizga etkazilganligi, "Tahlila-tahlil" AAT, "E-ijara", "Avtokameral", "E-imtiyoz", "Tax.gap", "Cashback", "Soliq" mobil ilovasi va boshqa qator dasturiy mahsullarning ishga tushirilishi yashirin iqtisodiyotni jilovlash va soliq tushumlariga ijobiy ta'siri bilan birga, teng raqobat sharoitini yaratish hamda tadbirkorlarga majburiyatini bajarishda haqiqiy ko'makchiga aylanmoqda. Ammo, shu bilan birgalikda tahlillar ko'rsatishicha soliqdan qochish holatlarida yashirin iqtisodiyotning darajasining ta'siri yuqoriligicha qolmoqda. Buni alkogol mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanayotgan hamda noqonuniy spirt ishlab chiqargan tadbirkorlik sub'ektlarida 2021-2022 yillar davomida o'tkazilgan sayyor tekshirishlar natijalari tahlili natijalarida ham ko'rish mumkin.

Alkohol mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanayotgan hamda noqonuniy spirt ishlab chiqargan tadbirkorlik sub'ektlarida 2021-2022-yillar davomida o'tkazilgan sayyor tekshirishlar natijalari tahlili⁸

ming so'm

T/r	Viloyat nomi	Faoliyat turi			NKMDan foydalanmaslik		Eski namunadagi akuviz marka bilan markalangan spirtli ichimliklar			Akviz markasiz spirtli ichimliklar sotish			Qalbaki marka bilan markalangan spirtli ichimliklar sotish			Yaroqlilik muddati o'tgan spirtli ichimliklar sotish			Noqonuniy spirt ishlab chiqarish		
		Ulgurji		Chakana savdo	Shoxo bcha	holati	summa	dona	litr	summa	dona	litr	summa	dona	litr	summa	dona	litr	summa	litr	summa
		soni	Shoxob cha soni																		
	Respublika bo'yicha jami	57	95	118	152	119	607784	46045	28563	1602848	108874	40268	417344	22239	12481	383890	14044	7660	171261	37100	284900
1	Qoraqalpog'iston R.	3	10	7	7	5	6 739	94	48	2 086	34	21	810	0	0	0	1 338	990	26 303		
2	Andijon vil.	3	5	4	4	4	9 729	128	61	2 122	0	0	0	0	0	0	482	295	7 600		
3	Buxoro vil.	4	4	6	6	6	14 131	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1 323	926	87 719		
4	Jizzax vil.	4	5	4	4	4	21 497	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0		
5	Qashqadaryo	3	3	8	8	6	1 739	200	125	26 645	24	12	2 245	0	0	0	0	0	0		
6	Navoiy vil	1	1	7	7	7	98 732	624	283	13 600	0	0	0	0	0	0	0	0	0		
7	Namangan vil	4	5	11	11	9	19 657	127	73	2 547	25	6	377	5 856	2 928	83 354	9 627	4655	29 675		
8	Samarqand v	3	3	7	7	7	7 180	1 106	768	27 243	0	0	0	0	0	0	0	0	0		
9	Surxondaryo	4	4	6	7	7	31 536	259	140	7 767	0	0	0	0	0	0	6	3	160		
10	Sirdaryo vil	0	0	17	24	6	30 281	322	162	11 680	3	3	1 000	2 543	1 271	59 425	0	0	0		
11	Toshkent vil	5	14	10	14	7	8 673	0	0	0	0	0	0	3 386	1 693	48 677	0	0	0	37 100	284900
12	Farg'ona vil	4	4	7	7	5	22 508	277	138	7 042	33	24	1 620	784	196	6 742	107	75	2 500		
13	Xorazm vil	3	3	13	13	12	163605	0	0	0	0	0	0	9 225	6 170	176681	0	0	0		
14	Toshkent sh	10	27	11	33	34	171778	42 908	26 767	1502116	108755	40 201	411292	445	223	9 011	0	0	0		
15	YSTHI	6	7	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1 161	717	17 304		

⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bu tekshirishlar davomida ulgurji va chakana savdo shahobchalarida o'tkazilgan tekshirishlar yashirin iqtisodiyot doirasida bir qator noqonuniy faoliyat, ya'ni soliqdan qochishga olib kelgan holatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Ya'ni bu korxonalarda nazorat kassa mashinalaridan foydalanmaslik hisobiga 607784 ming.so'mlik, eski namunadagi aksiz marka bilan markalangan spirtli ichimliklar hisobiga 1602848 ming.so'mlik, aksiz markasiz spirtli ichimliklar sotish hisobiga 417344 ming. so'mlik, qalbaki marka bilan markalangan spirtli ichimliklar sotish hisobiga 383890 ming.so'mlik, yaroqlilik muddati o'tgan spirtli ichimliklar sotish hisobiga 171261 ming.so'mlik, asl hajmiga nisbatan markadagi miqdori kam ko'rsatilib sotilayotgan spirtli ichimliklar sotishdan esa 42201 ming.so'mlik soliqdan qochish yuzaga kelgan bo'lsa, o'z navbatida 284900 ming.so'mlik noqonuniy spirt ishlab chiqarilganligi aniqlangan bo'lib, bu mahsulotlar doirasida ham ma'lum bir miqdorda soliq to'lanmasdan qolgan. Agar, soliqdan qochishni oldini olishning muhim choralari sifatida milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyotning turli xil ko'rinishlari va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni qisqartirish bo'yicha oxirgi besh yildagi jarayonni tahlil qiladigan bo'lsak quyidagilarni alohida keltirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son Farmoni qabul qilindi, unga muvofiq, xufiyona iqtisodiyotni jilovlash va yashirin ish o'rinlarini legallashtirishga qaratilgan tadbirlar belgilab berildi. Natijada esa, yashirin iqtisodiyotni jilovlash hisobiga soliq bazasini kengaytirish maqsadida, zamonaviy soliq ma'murchilikning yangi instrumentlari - Elektron hisobvaraqa-fakturalari, onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanish, tovarlarni markirovkalash, elektron shartnoma tizimlari joriy etilganligi natijasida, 2016-yilda YaIM yashirin iqtisodiyotning ulushi 59 foiz bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 7 foiz punktga pasaytirildi yoki 52 foizga tushirildi.

Ayrim turdagi tadbirkorlik sub'ektlarini yashirin faoliyat yuritishlarini oldini olish maqsadida belgilangan rag'batlantirish mexanizmlari kiritildi. Xususan, umumiy ovqatlanish sohasidagi kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun bank kartalari va kontaktsiz to'lovlardan to'lovlar qabul qilinganda umumbelgilangan soliqlarni to'lashga majburiy tartibda o'tish maqsadida umumiy daromadga kiritilmasligi belgilandi, rieltorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 25 foizdan 13 foizgacha pasaytirildi, qurilish korxonalarida ayrim talablarni bajargan tadbirkorlik sub'ektlari uchun shartnoma tuzmasdan muddatli ravishda ishchilar yollashga ruxsat berildi, va boshqa mexanizmlar ishga tushirildi. Yashirin faoliyati eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalardan biri-yo'lovchi tashish sohasini qonuniylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'lovchi tashishni tartibga solishni yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Bundan tashqari, qurilish sohasida soliq nazoratini mustahkamlash, naqd pulsiz to'lovlarni ishlab chiqish va pul yuvishning oldini olish, elektron tijorat sohasida soliq nazoratini mustahkamlash, QQS to'lovchining "shubhali" korxonalar uchun guvohnomasini vaqtincha to'xtatish, shuningdek, yalpi soliq huquqbuzarliklari uchun jazo choralari kuchaytirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi. Ushbu yo'nalishdagi tadbirlarni amalga oshirish natijasida esa, soliqlarni ixtiyoriy to'lash darajasi 83 foizdan 96 foizga chiqarildiki, albatta bu ijobiy holat deb baholash mumkin.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktyabrdagi "Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillash-tirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5252-son qarori asosida 2022-yil 1-yanvardan boshlab iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish, shuningdek, ushbu sohada ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida jamoatchilik nazoratining raqamli instrumentlari (xarid cheklari bo'yicha 1 foizlik cashback hamda huquqbuzarliklar yuzasidan "Soliq Hamkor" tizimi orqali murojaatlar bo'yicha 20 foizlik rag'batlantirish) joriy etildi.

Buning natijasida esa, mukofotlash tizimi joriy etilishi natijasida - 2022-yil yanvar-oktyabr oylarida "Soliq-hamkor" tizimi orqali 121,1 mingta murojaat kelib tushgan. Murojaat asosida o'tkazilgan 61,1 mingta tekshiruvdan, 59,9 mingtasi (98 foiz) tasdig'ini topdi va 45,9 mingta tekshiruv natijasida undirilgan jarima summasidan 29,5 mlrd.so'm mukofot puli to'lab berildi. "Cashback" va mukofotlash tizimlari joriy etilishi orqali yil boshidan onlayn NKT tovar aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 baravarga (qo'shimcha 47,6 trln.so'm) oshishi ko'rinishida ijobiy natija qayd etildi.

Uchinchidan, onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassadan foydalanishga o'tildi. Natijada, bugungi kunda 221,9 mingta onlayn nazorat kassa mashinalari (NKM) o'rnatildi. Savdo ob'ektlarini onlayn NKM bilan to'liq jihozlash, tovarlar harakatini kuzatib borish, ularning bojxona va

bozor qiymatlarini taqqoslash, bozordagi narx kon'yunkturasi o'rganish, tovar aylanmasini masofadan nazorat qilish hamda realizatsiya hajmlarini elektron hisob faktura va soliq hisobotlarida avtomatik shakllantirish orqali QQS zanjirining uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi.

To'rtinchidan, alohida turdagi tovarlarning respublikaga noqonuniy olib kiritilishi, ishlab chiqarilishi va sotilishining oldini olish, ularning samarali hisobini ta'minlash, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligini oshirish maqsadida ayrim tovarlarni markirovkalashni bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2022-yil 15-apreldan boshlab maishiy texnika mahsulotlarini majburiy raqamli markirovkalash tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish boshlandi. 2022-yil 1 sentyabrdan boshlab dori vositalari va tibbiy buyumlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish boshlandi. 2023-yil 1-iyuldan boshlab suv va salqin ichimliklarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish belgilandi.

Natijada esa, raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich alkogol, tamaki va pivo mahsulotlari savdosining barcha jarayonlarida joriy qilindi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchi (51 ta alkogol, 2 ta tamaki va 26 ta pivo) va import qiluvchi (10 ta alkogol va 4 ta tamaki) korxonalar tomonidan jami 1 736 mln.dona (945,2 mln.dona – tamaki, 462,7 mln.dona – alkogol va 328,1 mln.dona pivo) markirovkalangan mahsulotlar ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan.

2-jadval

Soliqdan qochish holatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 189-moddasi⁹ bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari tahlili¹⁰ (mln.so'm)¹¹

T.R	Hudud nomi	2021-yil		2022-yil (9 oy)	
		189-moddasi bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishi			
		soni	summasi	soni	summasi
Jami		552	607 968,0	356	486 309,8
1	Qoraqalpog'iston R.	8	10 050,7	8	7 549,7
2	Andijon viloyati	56	33 540,5	21	9 611,9
3	Buxoro viloyati	54	77 264,8	17	9 482,5
4	Jizzax viloyati	17	8 502,6	7	4 982,3
5	Qashqadaryo viloyati	47	45 750,0	32	32 910,5
6	Navoiy viloyati	18	13 058,6	20	13 631,1
7	Namangan viloyati	43	15 382,4	37	52 388,5
8	Samarqand viloyati	57	55 551,7	32	34 358,0
9	Surxondaryo viloyati	18	7 444,9	12	7 357,3
10	Sirdaryo viloyat	9	8 354,4	15	87 851,3
11	Toshkent viloyati	17	27 725,1	13	20 949,9
12	Farg'ona viloyati	100	177 479,5	46	93 783,5
13	Xorazm viloyati	52	36 418,3	44	33 125,9
14	Toshkent shahar	56	91 444,4	52	78 327,2

Raqamli markirovkalangan mahsulotlar bo'yicha ma'lumotlarni (nomi, hajmi, ishlab chiqarish sanasi, suratlari) jamlaydigan "Mahsulotlar katalogi"ga jami 21414 ta (6 345 ta alkogol, 857 ta pivo, 1685 ta tamaki) mahsulot turlari to'g'risida ma'lumotlar kiritilgan. Tizim joriy qilinishi natijasida 51 ta alkogol mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonasining realizatsiya ko'rsatkichlari o'tgan yil mos davriga nisbatan 7 foizga, 8 ta importda esa 47,6 foizga va 26 ta pivo ishlab chiqaruvchida 11 foizga oshganligi kuzatildi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148 va 149-son qarorlariga muvofiq maishiy texnika (2022-yil 15-aprel) va dori vositalarni (2022-yil 1-sentyabr) raqamli markirovkalash tizimlarini joriy qilish tadbirlari davom etmoqda. Jami 17 ta ishlab chiqaruvchi va 25 ta import qiluvchi korxonalar tomonidan jami 2,8 mln. dona – raqamli markirovkalangan maishiy texnika mahsulotlari ishlab chiqarilgan. 25 ta dori vositalarni mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda 25 ta xorijiy ishlab chiqaruvchining vakolatxonasi tomonidan jami 10,1 mln. dona – raqamli markirovkalangan dori vositalari ishlab chiqarilgan. Endi, respublikamiz soliq va huquqiy tizimida soliqdan qochish holatlarini

⁹ Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish

¹⁰ Bosh prokuraturaning ma'lumotlariga asoslangan holda Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

baholash hamda ularning oldini olish, kamaytirish hamda amalga oshirilgan javobgarlik choralari ham qisqacha tahlil qilamiz. Chunki, ko'rilgan choralarning samaradorligi soliqdan qochishni kamaytirishga bevosita ta'sir kuchiga ega, shu boisdan ushbu jarayonni tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Tahlillarga tayanadigan bo'lsak, 2021-2022-yillarda soliq organlari tomonidan Iqtisodiy sudlarga soliq organlari tomonidan 37189 ta holatda 8 152,2 mlrd.so'mga arizalar kiritilgan. Shundan 4165 ta holatda (11 %) ariza 3 717,2 mlrd.so'mga(45,6%) arizalar rad qilinib soliq to'lovchilar foydasiga hal qilingan. 2022 yilda 869 ta soliq to'lovchining xarid qilinayotgan tovarlari realizatsiya qilinayotgan tovarlar nomenklaturasiga nomutanosibli va 1,12 trln.so'm soliq qarzdorligiga yo'l qo'yanligi sababli, soliq xavfi yuqori soliq to'lovchilar guruhiga kiritilgan va hisob raqamlaridagi kiritim chiqim operatsiyasi vaqtinchalik to'xtatib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining (2021) 189-moddasiga ko'ra, soliq to'lovchilar tomonidan, "tovarlar savdosi yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini juda ko'p miqdordagi qiymatda buzish bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi, basharti birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzilishining oqibatlarini bartaraf etgan va etkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etilishi" belgilab qo'yilgan.

Agar, bu holatni real ma'lumotlarga asoslanib tahlil qiladigan bo'lsak, yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2021-yilda 552 ta holat bo'yicha qo'zg'atilgan jinoyatlari ishlari doirasida 607968,0 mln.so'mlik 2022 yilning to'qqiz oyida esa, 356 ta jinoyat ishi bo'yicha 486309,8 mln.so'mlik savdo qoidalarini buzganlik uchun choralar ko'rish belgilangan. Buni viloyatlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, bu holat Farg'ona, Andijon va Buxoro viloyatlarida ko'proq sodir bo'lgan.

Tadqiqotimizning ushbu bandi bo'yicha qilingan tahlillarimizga asoslanib quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

qonunbuzarliklarni takrorlanishi xufyona faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalarining soxta tadbirkorlik bilan shug'ullanib, birovlar nomiga korxonalar ochib, norasmiy rahbarlarning katta miqdorda daromad olib, naqd pullarni bankka topshirmaslik;

kirimsiz tovarlarni sotishga deb pul tushirib, pul mablag'larini xaridorgir mahsulotlarga ko'chirishi, xaridorgir mahsulotlarini naqd pulga sotib, kirimsiz mahsulotlarga pul tushirgan soliq to'lovchilarga ma'lum foizni ushlab qolgan holda naqd pul berilishi;

naqd pulni o'rniga kirimiz tovarlarni jo'natildi deb elektron hisob varaq fakturalar rasmiylashtirilishi, oqibatda kiritim hujjatlarsiz sotgan mahsulotlariga foyda solig'i, xaridorgir mahsulotlari kamomadiga yo'l qo'yanligi, ya'ni naqd pulga hujjatlarsiz sotganligi oqibatida katta miqdori qo'shilgan qiymat solig'i to'lamasligi natijasida, byudjet oldida mlrd.lab soliq qarzdorligi hosil qilishi;

katta miqdorda foyda olib, korxonalar faoliyatini to'xtatib qo'yishi, yollangan rahbari esa yashirishib, qidiruv e'lon qilinishi, mazkur huquqbuzarliklarga ya'ni soxta tadbirkorlikka jinoiy jazolarning o'ta engil belgilanganligi sababli bir xil norasmiy rahbarlar tomonidan qayta qayta turli shaxslar nomiga xufyona firmalar ochib yuqoridagi holatlarning takrorlanishiga olib kelmoqda.

Xulosa va takliflar.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurash choralari kuchaytirish maqsada kompleks iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarshi kurashishdan iborat. Ushbu chora-tadbirlar soliqqa rioya qilishni kuchaytirish, daromadlarni yig'ishni ko'paytirish, adolatli va shaffof biznes muhitini mustahkamlashga qaratilgan.

Soliq ma'muriyatchiligini kuchaytirish uchun soliq to'lashdan bo'yin tovlashni yanada samarali aniqlash va oldini olish uchun soliq ma'muriyatining imkoniyatlarini, jumladan texnologik infratuzilma, ma'lumotlar tahlili va malakali ishchi kuchini oshirish.Yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanishga moyilligi yuqori bo'lgan tarmoqlar va shaxslarga qaratilgan riskga asoslangan audit yondashuvlarini amalga oshirish zarur.

Hamkorlik va axborot almashishni yaxshilash uchun soliq organlari, moliya institutlari va boshqa tegishli davlat idoralari o'rtasida soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha potentsial harakatlar to'g'risida ma'lumotlar va ma'lumotlarni almashish uchun hamkorlikni kuchaytirish.Transchegaraviy soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini bartaraf etish uchun xalqaro hamkorlik va axborot almashuvining samarali mexanizmlarini yaratish kerak .

Soliqdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan qattiq jazo va sanksiyalar, jumladan jarimalar, jinoiy javobgarlikka tortish va mulkni musodara qilish. Jismoniy shaxslarni qasos olishdan qo'rqmasdan soliq to'lashdan bo'yin tovlash faoliyati to'g'risida xabar berishga undash uchun ma'lumot beruvchini himoya qilish dasturini amalga oshirish.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash bilan bog'liq jinoiy daromadlarni legallashtirish faoliyatini aniqlash va oldini olish uchun soliq organlari va moliyaviy razvedka bo'linmalari o'rtasidagi muvofiqlashtirishni yaxshilash. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida korporativ tuzilmalardan noto'g'ri foydalanishning oldini olish uchun tadbirkorlik sub'ektlarining benefisiar egalik huquqini aniqlash va tekshirish tartiblarini takomillashtirish. Baholash natijalari va soliq to'lashdan bo'yin tovlashning paydo bo'layotgan tendentsiyalari asosida strategiyalarni muntazam ravishda ko'rib chiqing va yangilang.

Ushbu taklif etilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yashirin iqtisodiyotning qisqarishiga va soliqqa rioya etilishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Soliq ma'muriyatchiligini kuchaytirish, soliq tartib-qoidalarini soddalashtirish, soliq to'lovchilar bilimini oshirish va qat'iy jazo choralari qo'llash orqali O'zbekiston yanada shaffof va adolatli soliq tizimini yaratishi mumkin, bu esa daromadlarni yig'ish va iqtisodiy o'sishning oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Axmedov F. (2023) Soliq to'lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent.

Аронов А ва Кашин В (2007) Налоги и налогообложение –М.: Магистр.

Андреева В.А. (2017) Повышение налоговой грамотности и культуры участников налоговых правоотношений. Экономика Интерактивная наука |4 (14). стр.136-140.

Жалонкина И. (2012) “Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской федерации”. Автореферат диссертации на и соискание ученой степени кандидата экономических наук с.14.

Кодекс (2021) Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 189-моддаси

Кристина Ф.Б. “The Informal Economy” march 2004, Шведский Международный агентство сотрудничества развития СЕ-105 25 Стокгольм Швеция.

Кузнецов А.Л. (2016) Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект). [Электронный ресурс]. – Режим доступен: <http://vasilieva.narod.ru/jurnal/>

Нормурзаев У.Х. (2021) 2021 йилдаги солиқ маъмурчилиги ҳамда солиқ кодексига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар юзасидан //Интернаука. – Т. 6. – №. 182 част 2. – С. 99.

Нормурзаев У.Х. (2020) Солиқ имтиёзлари орқали иқтисодиёт тармоқлари ҳамда соҳаларида тизимли таркибий ислохотларни қўллаб-қувватлаш сиёсати // Экономика и финансы (Узбекистан). №4 (136). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/soli-imtiyozlari-or-ali-i-tisodiyot-tarmo-lari-amda-so-alarida-tizimli-tarkibiy-islo-otlarni-llab-uvvatlash-siyosati> (дата обращения: 17.01.2023).

Нормурзаев У.Х. (2014) Иқтисодиётни тартибга солишда солиқ имтиёзларининг аҳамияти ва бюджет даромадларини шакллантиришдаги роли//Экономика и финансы (Узбекистан). №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/i-tisodiyotni-tartibga-solishda-soli-imtiyozlarinigi-a-amiyati-va-byudzheta-daromadlarini-shakllantirishdagi-rol> (дата обращения: 17.01.2023).

Покровский А.К. (2011) Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта: учеб. пособие / А. К. Покровский. –М.: Изд-во Кнорус. 160 с.

Шумпетер Й. (2007) Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шумпетер. –М.: Изд-во Эксмо. 864 с.